

SHARQ ADABIYOTIDA ADABIY ERTAK JANRINING SHAKLLANISHI

Ibrohimova Gulchiroy Asqarali qizi,

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

ibroximovziyodillo89@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq adabiyotida, xususan o'zbek adabiy muhitida adabiy ertak janrining shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Janrning ildizlari qadimgi mifologik tasavvurlar, diniy-e'tiqodiy manbalar, didaktik adabiyot hamda xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. "Avesto", "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy dostonlari, xalq dostonlari va Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari misolida adabiy ertak janrining badiiy va g'oyaviy manbalari ochib beriladi. Shuningdek, ertaklarning madaniyatlararo ko'chishi, milliy xususiyatlar bilan boyishi va XX asrga kelib o'zbek adabiy ertaklarining mustaqil janr sifatida qaror topish jarayoni ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida adabiy ertak janri uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli ekani, uning shakllanishida folklor, mumtoz adabiyot, ma'rifatparvarlik harakati va jahon adabiy aloqalari muhim omil bo'lgani asoslanadi.

Kalit so'zlar: adabiy ertak, Sharq adabiyoti, o'zbek adabiyoti, folklor, didaktika, mif, afsona, "Avesto", "Qutadg'u bilig", "Zarbulmasal".

Abstract. This article examines the formation stages of the literary fairy tale genre in Eastern literature, particularly within the Uzbek literary tradition. The roots of the genre are analyzed in close connection with ancient mythological concepts, religious sources, didactic literature, and oral folklore. Using examples from the Avesta, Qutadg'u Bilig, Alisher Navoiy's epics, folk epics, and Gulxaniy's Zarbulmasal, the artistic and ideological foundations of the literary fairy tale are revealed. The article also highlights the intercultural transmission of fairy tales, their enrichment through national features, and the process by which Uzbek literary fairy tales became established as an independent genre by the twentieth century. The study concludes that the literary fairy tale is the result of a long historical development shaped by folklore, classical literature, enlightenment movements, and world literary interactions.

Keywords: literary fairy tale, Eastern literature, Uzbek literature, folklore, didacticism, myth, legend, Avesta, Qutadg'u Bilig, Zarbulmasal.

Аннотация. В данной статье анализируются этапы формирования жанра литературной сказки в восточной литературе, в частности в узбекской литературной среде. Истоки жанра рассматриваются в тесной связи с древними мифологическими представлениями, религиозно-духовными источниками, дидактической литературой и устным народным творчеством. На примере «Авесты», «Кутадгу билиг», поэм Алишера Навои, народных дастанов и произведения Гульхани «Зарбулмасал» раскрываются художественные и идейные основы литературной сказки. Также показаны процессы межкультурного перехода сказочных сюжетов, их обогащение национальными особенностями и становление узбекской литературной сказки как самостоятельного жанра к XX веку. В результате исследования обосновывается, что литературная сказка является итогом длительного исторического развития, в котором важную роль сыграли фольклор, классическая литература, просветительское движение и мировые литературные связи.

Ключевые слова: литературная сказка, восточная литература, узбекская литература, фольклор, дидактика, миф, легенда, «Авеста», «Кутадгу билиг», «Зарбулмасал».

Kirish. Adabiy ertak janri Sharq va o'zbek adabiyotida uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan murakkab badiiy hodisalardan biridir. Uning ildizlari qadimgi mifologik qarashlar, diniy-e'tiqodiy tasavvurlar, xalq og'zaki ijodi, didaktik adabiyot hamda mumtoz yozma adabiyot bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois adabiy ertak

janrini bir davr yoki bir adabiy hodisa doirasida emas, balki ko'p qatlamli madaniy-adabiy jarayon mahsuli sifatida o'rganish zarur.

Sharq adabiyotida ertaksimon tafakkur unsurlari juda qadimiy manbalardan oq uchraydi. Xususan, "Avesto"da uchraydigan jonlantirish, bo'rttirish, timsollash kabi badiiy unsurlar keyinchalik ertak janrining poetik xususiyatlari shakllanishiga zamin yaratgan. Shuningdek, "Qutadg'u bilig"dagi pand-nasihati ruhidagi ifodalar, Alisher Navoiy asarlaridagi xalqona syujet, majoziy obraz va tarbiyaviy yo'nalish ham adabiy ertakning shakllanish jarayonida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, o'zbek adabiyotshunosligida adabiy ertak janrining genezisi, uning Sharq adabiyoti bilan aloqasi, folklor va mumtoz adabiyot ta'sirida shakllanishi masalalari hali ham tizimli yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, adabiy ertakning qadimgi manbalardan XX asrgacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlarini izchil ko'rsatish ilmiy jihatdan muhimdir.

Adabiy ertaklarning ildizi juda qadimga, insoniyatning ibtidoiy davrlariga taqalib, xalqlarning urf-odat-udumlari jarayoni bilan bog'liq holda mif va afsonalar, tabu, xalq ertaklari bag'rida yetilgan, asta-sekinlik bilan jamiyat rivojlangani, bosmaxonalarning paydo bo'lishi, insoniyatning talab va dunyoqarashi o'sishiga mos ravishda ilk ertaknavislar paydo bo'la boshlagan. Ularning ijodi rivojlana borib boshqa xalqlar madaniyati bilan uyg'unlasha boshlagan. O'z navbatida, ertaklar ham og'izdan og'izga o'tib, bir xalqning ertagi boshqa bir xalq adabiyotidan o'rin ola boshlagan. Ushbu ertaklar shunchalik o'sha xalq adabiyotiga singishib ketgani, natijada ularni aynan qaysi xalqniki ekanini aniqlash juda qiyin. "Janrning madaniyatlararo yoki tashqi 'ko'chishi' hodisasi turli mamlakatlar ertaklarida syujetlarning o'xshash bo'lishini tushuntiradi. Sehrli hikoyalar bir tildan boshqasiga qayta hikoya qilinib va tarjima qilinib, shu jarayonda milliy, ijtimoiy va kundalik darajada yangi muhitga moslashtirilgan." [1; 113] M.Gorkiy esa quyidagi fikrlarni aytadi: "O'zlashtirish degani hamma vaqt ham buzish degani emas, gohi paytda u yaxshi narsaga bebaho narsa qo'shadi. Uzoq o'tmishdagi ertaklarni har irq, millat, har bir sinfning turmush xususiyatlariga ko'ra o'zlashtirib olish va kamchiliklarini to'ldirish jarayoni aqliy madaniyat va xalq ijodiyotini o'stirishda katta rol o'ynashiga shubha qilmasa ham bo'ladi." [2; 320]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotda Sharq adabiyotida adabiy ertak janrining shakllanishiga oid qadimiy, mumtoz va yangi davr manbalari o'rganildi. Asosiy material sifatida "Avesto", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari, o'zbek xalq dostonlari, Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari hamda adabiyotshunos va folklorshunos olimlarning ilmiy qarashlari olindi. Tadqiqot davomida tarixiy-genetik metod yordamida janrning ilk ildizlari qadimgi mif, afsona, diniy qarashlar va didaktik tafakkur bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Tarixiy-qiyosiy metod asosida Sharq adabiyotidagi ertaksimon unsurlar bilan o'zbek adabiy ertagi orasidagi aloqadorlik ko'rsatildi. Tipologik metod orqali ertaklarning madaniyatlararo ko'chishi,

syujet va obrazlarning turli xalqlar adabiyotida o'ziga xos qayta ishlanishi masalalari ochib berildi. Matniy tahlil usuli esa badiiy asarlardagi obraz, syujet, didaktik ruh va xalqona unsurlarni aniqlashda qo'llanildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijasida adabiy ertak janrining ildizlari juda qadimiy davrlarga borib taqalishi aniqlandi. Janrning shakllanishida mifologik tafakkur, qadimiy diniy qarashlar, afsona va xalq ertaklari muhim asos bo'lib xizmat qilgan. "Avesto"da uchraydigan badiiy tasvir vositalari, timsollar va jonlantirishlar ertak poetikasining dastlabki kurtaklari sifatida namoyon bo'ladi. Ertaklarning shakllanishi sharq adabiyotida didaktika bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning kurtaklari qadimiy e'tiqodlarga taqaladi. Xususan, Zardushtiylilikning muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto" bunga yorqin misol bo'la oladi:

Mitraga topinurmiz

G'ildiraklari baland

Osmoniy arobani

Boshqarar Kunchiqarin,

Parvoz etar purviqor.[3]

Bu kabi "Hudolarni" olqishlovlar "Avesto"da juda ko'p uchraydi va uning asosi mana shunday o'xshatishlar, bo'rttirish va jonlantirishlardan iboratki, bu aynan ertak janrining badiiy shakllanishiga asos bo'lgan. O'z navbatida, ertaklardan farqli ravishda ularga ishonilgan, e'tiqod qilingan. "Avesto"da yana tarbiya haqida, jumladan qiz bolalar tarbiyasining qanchalar muhimligi xususida: "O'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar ilm-u donish o'rganishga jiddiyroq kirishsinlar. Zeroki, ular ota-ona xonadonida bo'lgan vaqtlarida ota ro'zg'orini tartibga solib, ziynat berib borsalar, jufti haloli manziliga borgach, bolalar tarbiyasi, ta'limi bilan, kelajak nasl tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim bo'ladi"[4; 84]. Xuddi shunday yoshlarni yaxshi tarbiyaga chorlovchi didaktik adabiyot Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida yoshlarni yaxshilikka, ilm olishga chorlovlar mavjud: "Til boshga balo keltirar, Ehtiyot bo'l, so'zingni o'lchab ayt, Odob-insonning libosi, Odocsiz kishi yalang'ochdir"[5], Navoiyning asarlarida, xususan "Xamsa" dostonining tarkibiga kiruvchi barcha dostonlar o'zining syujet chizig'i, qiziqarli voqealarga boyligi, xalqonalligi jihatidan adabiy ertak unsurlarini ko'rishimiz mumkin. Xususan, "Hayrat ul abror"da hikoya qilingan "Sher bilan durroj" hikoyati o'zining tarbiyaviy jihatlari, badiiy obrazlilik, majoziy ahamiyat kasb etganligi jihatidan ertak janriga juda yaqin keladi:

Bor edi bir beshada bir tund sher,

Vahshat aro ko'k asadidek daler.

Chun bo'lur erdi bolalab zavqnok,

Mo'r bolasin qilur erdi halok.[6; 229]

Ushbu asarlarda didaktika ustun bo'lib, odob-axloq, yaxshi tarbiya haqida so'z boradi. Ushbu asar tarkibidagi hikoya va masallar keyingi davrlarda ertak janri rivojiga

sezilarli hissa qo'shdi. "Saddi Iskandariy," "Farhod va Shirin" dostonlari ham bevosita xalq og'zaki ijodidan ruhlangan holda yaratilgan asarlar bo'lib, ularda Navoiyning adolatli podshoh haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Mehnatkash xalq ideologiyasidagi ideal hukmdor obraziga o'xshash ("Adolatli shoh", "Podshoh va kambag'al", "Uch savol"). O'rta Osiyo xalqlarida og'izdan og'izga ko'chib yurgan "Iskandarning shoxi bor" tipidagi ertaklarda ham bosh qahramon aynan Iskandar ekanligi ham ma'lum. Ko'rishimiz mumkinki, mumtoz adabiyotimiz vakillari xalq og'zaki ijodidan qanday ijodiy foydalangan bo'lsalar, ularning asarlari ham folklorga shunday ta'sir qildi: "Umuman olganda, xalq ertaklarini ijodiy qayta ishlash yo'li bilan asarlar yaratish an'anasi o'zbek klassik adabiyoti rivojining xarakterli belgisi hisoblanadi. Ma'lumki, unda yetakchi o'rinni poeziya egallagan. Shu sababli, shoir-klassiklar orasida adabiy ertak yaratish bilan bog'liq an'ana bo'lmagan bo'lsa-da, ular xalq ertaklarining eng muhim motivlari va badiiy-tasviriy vositalaridan o'z romantik dostonlari tuzilishida mahorat bilan foydalanganlar va ularni rivojlantirganlar." [7; 23] Mana shunday badiiy asarlar, o'zbek folklorining boy merosi asta-sekin adabiy ertak janrining shakllanishiga zamin yaratib bordi.

XIX asrga kelib dostonchilik maktablari paydo bo'la boshladi. "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Shirin va Shakar" kabi xalq dostonlarining xalq ichidan yozib olinib baxshilar tomonidan aytilishi o'zbek adabiyotida o'ziga xos voqea bo'ldi. Ulardagi inson xayolotining cheksizligi, badiiy to'qimalarning kuchliligi, millatning milliy xarakterini ochib berishga yo'nalganligi, ertaklarning taraqqiyotiga ham ta'sir etardi. Bu davrga kelib xonliklarda adabiyot rivojiga alohida e'tibor berildi. Xususan, Xiva xoni Eltuzarxon va Qo'qon xoni Amir Umarxon hukmronlik yillarida adabiyotga e'tibor kuchaydi. Aynan shu davrda jod qilgan Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari esa o'zbek adabiyoti, xususan, adabiy ertak rivojida muhim bosqich bo'lib xizmat qildi. Chunonchi, masal janridagi ushbu asar sujeti ertak janriga monand bo'lib, asar voqealari qushlar ishtirokida qiziqarli, o'tkir satiraga boy tarzda ifoda etiladi: "Alqissa, Ko'rqush bu navidi farah afzoni eshitib, xursand bo'lib, Yapaloqbibi manziliga ravona bo'ldi. Va uning sarmanzig'a ravona bo'ldi. Boyo'g'lining anchakim, muhim xayrg'a rag'bat bor erdi, bayon qildi." [8; 21] Asardagi obrazlar tizimi, sodda til, tasviriylik va majoziylik adabiy ertak janriga juda yaqin bo'lib, bevosita uning taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, Sharq didaktik adabiyoti ham adabiy ertak taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. "Qutadg'u bilig"dagi axloqiy-talimiy g'oyalar, Alisher Navoiy dostonlaridagi hikoyat, majoz va xalqona motivlar ertak janriga yaqin badiiy xususiyatlarni yuzaga keltirgan. Xalq dostonlari va baxshichilik an'anasi esa ertaksim on syujetlar, obrazlar va cheksiz badiiy fantaziyaning yozma adabiyotga kirib kelishida vositachi bo'lgan.

XIX asrga kelib Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari o'zbek adabiy ertak janrining shakllanishida muhim bosqichlardan biri bo'lib xizmat qilgani ma'lum bo'ldi. XX asrga kelib esa folklor, mumtoz adabiyot va jahon adabiyoti ta'sirida o'zbek adabiy ertagi

alohida janr sifatida shakllanib bordi. Shu bilan birga, adabiy ertakning birdan paydo bo'lmaganligi, balki uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli ekani ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, adabiy ertak janrining shakllanishini faqat yozma adabiyot doirasida tushuntirish yetarli emas. Chunki bu janrning ildizi xalq tafakkuri, ibtidoiy tasavvurlar, mifologik qarashlar va diniy-e'tiqodiy tushunchalar bilan uzviy bog'liq. Shu ma'noda "Avesto" singari qadimiy manbalarda uchraydigan timsollash, jonlantirish, bo'rttirish va ilohiylashtirish unsurlari keyingi davr ertak poetikasiga tayanch bo'lib xizmat qilgan.

Sharq adabiyotida didaktika yetakchi o'rin egallagani ham adabiy ertak shakllanishining muhim omillaridan biridir. "Qutadg'u bilig", Navoiy dostonlari va boshqa mumtoz asarlarda axloqiy xulosa chiqarishga yo'naltirilgan syujetlar, ramziy obrazlar va xalqona badiiy tafakkur kuzatiladi. Bu holat adabiy ertakning faqat qiziqarli voqeaga emas, balki tarbiyaviy-estetik maqsadga ham xizmat qilganini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ertak syujetlarining xalqlararo ko'chishi janrning boyishi va kengayishiga sabab bo'lgan. Bir xalq folklorida shakllangan motivlar boshqa xalq adabiyotiga o'tib, yangi milliy muhitga moslashgan. Natijada ertaklar bir tomondan umumiy insoniy mazmun kasb etsa, ikkinchi tomondan har bir xalqning milliy xarakteri, turmush tarzi va estetik qarashlarini ham aks ettirgan. O'zbek ertaklarida yaylov, cho'l, tog', sharqona shahar muhiti, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar obrazlari orqali ayni shu milliylik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu o'rinda, sovet davri adabiyotshunosligida o'zbek bolalar adabiyotini faqat XX asr, xususan "Oktabr to'ntarishi"dan keyin shakllangan hodisa sifatida baholash biryozlama yondashuv bo'lgani ko'rinadi. Aslida esa bolalar adabiyoti, jumladan adabiy ertak janri, ancha qadimiy manbalar, folklor va mumtoz adabiyot bag'rida asta-sekin shakllangan. Demak, XX asr bu janrning paydo bo'lish davri emas, balki uning alohida janr sifatida mustahkam qaror topgan bosqichi sifatida baholanishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Sharq adabiyotida adabiy ertak janrining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon mahsuli bo'lib, uning ildizlari qadimgi mifologik qarashlar, diniy manbalar, xalq og'zaki ijodi va didaktik adabiyot bilan bog'liqdir. "Avesto", "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy asarlari, xalq dostonlari va "Zarbulmasal" singari badiiy manbalar adabiy ertak janrining badiiy-g'oyaviy shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Shuningdek, janrning taraqqiyotida madaniyatlararo adabiy aloqalar, syujetlarning ko'chishi va milliy muhitga moslashuvi ham muhim o'rin tutgan. O'zbek adabiy ertagi XX asrga kelib mustaqil janr sifatida qaror topgan bo'lsa-da, uning ildizlari ancha qadimiy qatlamlarga borib taqaladi. Shu bois adabiy ertakni uzoq tarixiy-adabiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'rganish ilmiy jihatdan eng to'g'ri yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kostikova, O.I. (2015). *Translating fairy tales: truth and value. Moscow University Translation Studies Bulletin. Series 22. Translation theory, 2, 100–113.*
2. Gorkiy, M. Adabiyot haqida. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
3. Avesto. Asqar Mahkam tarjimai. Toshkent: Sharq, 2001.
4. Геродот. История. В 9-х ки. -С.84.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: 2006.
6. A.Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti. 2020. B-229
7. Алимов С. Становление и развитие жанра литературной сказки в узбекской советской литературе: дис. ... канд. филол. наук: 10.01.03, 10.01.09. Ташкент, 1984. С. 23
8. Gulxaniy. Zarbulmasal. Toshkent: O'qituvchi, 1976.
9. Jalolov G'. O'zbek folklori va adabiy aloqalar masalalari. Toshkent: Fan, 1974.
10. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va uning taraqqiyot bosqichlari. Toshkent: Fan, 2006.
11. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: O'qituvchi, 1990.
12. <https://www.researchgate.net/publication/396309063> Erkin Vohidov she'riyatida takrorning badiiy-estetik funksiyasi
13. <https://www.researchgate.net/publication/391487771> Til va adabiyotuz 2
14. <https://www.researchgate.net/publication/391485993> Indonesian Journal of Cultural and Community Development
15. Murodilovna, O. G. (2025, October). LIRIK TUR JANRLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 253-257).
16. Murodilovna, O. G. (2019). The peculiarities of vazn meter in uzbek poetry of the independence period. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(2), 33-39.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934